

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2023-yilning 1- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘I Sh. Mamadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta‘minlash borasida 2023-yilning 1-choragida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2023-yilning I choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-mart oylarida 2023-yilning yanvar-martida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 10 988,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 3,2 % ga o‘tdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 6 703,8 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 101,4 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 3 448,6 mlrd. so‘mni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 103,5 %ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-mart oylarida, Farg‘ona viloyatida jami 1720,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 104,5 %ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **58 069** tani tashkil etib, ulardan **42 309** tasi yoki **72,8** % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda **2 230** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa 2022-yilning mos davriga nisbatan **254** taga ko‘p.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5,7** trln. so‘mni, 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **120,1** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **5,1** trln so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **107,7** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilning yanvar-mart oylarida 439,2 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 128,8 mln. AQSH dollari va import – 310,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning 1-aprel holatiga viloyatda bo‘yicha doimiy aholi soni **3 994,8 ming** kishini tashkil etib, yil boshidan **81,4** ming kishiga yoki **2,1** % ga o‘tdi.